

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM  
VAZIRLIGI**

**«RO'YXATGA OLINDI»**

№ vm - 343 - 3400 - 3.14

«09» \_\_\_08\_\_\_ 2003 y.

**«TASDIQLANDI»**

**O'zbekiston Respublikasi**

**Oliy va o'rta maxsus**

**ta'lim vazirligi**

**S.Tulyaiov**

**«1» iyul 2003 y.**

**«MOLIYaviy VA BOSHQARUV HISOBI»**

**fanidan**

**DASTUR**

**340000 - “Biznes va boshqaruv” ta'lim sohasidagi barcha bakalavriat yo'nalishlari  
uchun**

**Tuzuvchilar:** i.f.n., dots. Xasanov B.A.,  
k. o'q. Rizaev N.Q.,  
o'qit. Qurbonboev J.E.

**Taqrizchilar:** i.f.n., dots. Mamatov Z.T.,  
i.f.n., dots. Bozorov Q.T.

«Moliyaviy va boshqaruv hisobi» fanini talabalarga o'qitish bozor munosabatlari sharoitida respublikamizda buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida tashkil etish va yuritish zaruriyatidan kelib chiqadi.

“Moliyaviy va boshqaruv hisobi” fani bo'yicha tuzilgan ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limining Davlat ta'limi standartlari talablari asosida tuzilgan.

Dasturda «Moliyaviy va boshqaruv hisobi» fanining maqsadi, vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi, Davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim va ko'nikmalar, ma'ruza va seminar darslari bo'yicha ishlarning minimal miqdori, kompyuter va informatsion texnologiyalarni qo'llash, fan dasturi, amaliy mashg'ulotlari, kurs ishi mavzularining ro'yxatlari, tavsiya etilayotgan mavzular bo'yicha ko'rgazma - namoyish materiallari, o'quv filmlar va boshqa interaktiv usullar hamda didaktik materiallar ro'yxati, talabalarni reyting asosida o'zlashtirishni baholash hamda adabiyotlar ro'yxati o'z ifodasini topgan.

Необходимость обучения студентов дисциплине "Финансовый и управленческий учет" вызвано переводом системы бухгалтерского учета в нашей республике на международные стандарты.

Данная учебная программа по предмету "Финансовый и управленческий учет" составлена по требованиям Государственного образовательного стандарта Республики Узбекистан и содержит следующие сведения:

Цель и задачи предмета, связь с остальными предметами, знания и навыки соответствующие Государственному образовательному стандарту, минимальное количество лекционных и семинарских занятий, применение компьютеров и информационной техники, программа предмета, практические занятия, список тем курсовых работ, наглядно - показательные материалы по рекомендуемым темам, список учебных фильмов и других интерактивных, дидактических материалов, контроль успеваемости студентов по рейтинговой системе и список используемой литературы.

The necessity of training of the students to the "Financial and Management Accounting" consists of the organization the system of Accounting in our republic according to the international standarts that requires conducting this subject.

The created program of the "Financial and Management Account" subject - completely answers all requirements state educational standarts of the Republic of Usbekistan. The programm contains following items:

The purpose and task of a subject, communication with other subjects, knowledge and skills appropriate to the SSE (Standards of State Education), minimum quantity of lectures and seminars employment, application of computers and technological information, program of the subject, practic lessons, the list of themes of "course works", evident - indicative materials on recommended themes, the list of educational films and other materials, control of progress of the students on a rating system and list of the literature for usage.

## **I. SO'Z BOSHI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim - tarbiya va kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish, barkamol avlodni voyaga etkazish to'g'risida"gi Farmonida (06.10.97y.), "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlashning Milliy dasturi"ni hayotga tatbiq etish ishlari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi, deb belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 16 avgust 343 - sonli Qaroriga muvofiq Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi. Mazkur standartlar bo'yicha har bir o'qitiladigan fanlardan dasturlar tayyorlash zaruriyati tug'ildi. "Moliyaviy va boshqaruv hisobi" fani bo'yicha ushbu dastur qo'yilgan barcha talablar asosida tuzilgan bo'lib, "Buxgalteriya hisobi va audit"yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalardan tashqari Oliy ta'limning boshqa yo'nalishlari uchun ham qo'llaniladi.

### **O'qitishning maqsadi, vazifalari va boshqa fanlar bilan o'zaro bog'lanishi**

Mustaqil Respublikamizda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish hamda bozor munosabatlarining rivojlanishida malakali buxgalterlar, auditorlar, soliqchilar, moliya mutaxassislarini tayyorlashga zarurat tug'diradi.

O'quv rejasiga muvofiq buxgalteriya, audit, soliq, moliya mutaxassisliklari «Moliyaviy va boshqaruv hisobi» fanini o'rganadilar. Moliya organlari va mustaqil xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning mablag'lari, ularning tashkil topishi manbalariningharakatini, xo'jalik muomalalarini hisobga olish, ularni hujjatlashtirish, umumlashtirish, korxon va xo'jaliklarning mulkiy, moliyaviy faoliyati to'g'risidagi to'liq va ishonarli ma'lumotlarini shakllantirish hamda hisobotlarni tuzish, mamlakatimiz korxonalarida buxgalteriya hisobi yordamida

shakllanadigan davriy moliyaviy hisobot ma'lumotlarining realligini ta'minlash, tashkilotlar bilan hisoblashishlarni to'g'ri tashkil qilishni davlatimiz qonunlari, hukumat qarorlari, tegishli me'yoriy hujjatlar asosida o'rgatadi.

«Moliyaviy va boshqaruv hisobi» fani korxonalarining mulkiy va moliyaviy faoliyatini hisobga olishda o'zining usul, uslubiyatiga ega bo'lishi bilan birgalikda quyidagi fanlar bilan ham bevosita bog'liq: "Iqtisodiyot nazariyasi"; "Makroiqtisodiyot"; "Mikroiqtisodiyot"; "Statistika"; "Audit"; "Iqtisodiy tahlil"; "Moliya"; "Soliqlar va soliqqa tortish"; "Pul, kredit va banklar"; "Menejment"; "Marketing"; "Xalqaro iqtisodiy munosabatlar"; "Sug'urta ishi"; "Kichik biznes va tadbirkorlik"; "Huquqshunoslik" va boshqalar.

### **Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, uquviga va ko'nikmalariga qo'yiladigan talablar**

Mazkur mutaxassislikda o'qiydigan talabalar moliyaviy va boshqaruv hisobini chuqur o'rganishi hamda etuk mutaxassis bo'lishi uchun quyidagi talablar quyiladi:

- - huquqiy, demokratik mamlakatning talabalari, ayniqsa, moliya va soliq mutaxassisligini egallovchi talabalar moliyaviy va boshqaruv, audit fanlarini chuqur egallagan bo'lishi ;
- - bozor iqtisodiyotiga o'tish tamoyillarini hamda qonunlarini mukammal o'rganishi;
- - milliy g'ururga, yuqori madaniyatga ega bo'lishi, o'zbek xalqining tarixini bilishi;
- - mutaxassislik fani bilan bog'liq bo'lgan fanlarni mukammal o'rganishi;
- - fan va texnika yutuqlariga qiziquvchan, o'ziga nisbatan talabchan, o'rganayotgan faniga, o'z vataniga fidoyi bo'lishi kerak.

Fanni o'rgatishda mutaxassislik kafedra o'qituvchilari, talabalarda fanga nisbatan qiziqish uyg'otish, har bir talabaning bilim saviyasini hisobga olingan holda ularga vazifa berish hamda talab qilish san'atiga ega bo'lishi kerak.

O'qitish jarayonida nazariy bilim bilan amaliyotni solishtirish usullarini, talabaning mustaqilligini ta'minlovchi o'quv jarayonini, ilmga bo'lgan qiziqishini tashkil qilish hamda ko'proq ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratib berish kerak bo'ladi

### **Fanni o'qitishdagi yangi texnologiyalar**

Talabalarga zamonaviy usulda fanni o'rgatish, ularning mustaqil bilim olishiga sharoit yaratish hamda olgan bilimini mustaqil ravishda baholash uchun quyidagilardan foydalaniladi;

- - talabalarni oldindan tarqatma materiallar bilan ta'minlashga erishish;
- - talaba o'z bilimini o'zi baholaydigan sharoitni yaratib berish;
- - talabalarning bilimini tayanch iboralari asosida baholashni joriy qilish;
- - talabalarni kichik guruhlariga bo'lib o'qituvchilar rahbarligida mustaqil bilim olishga o'rgatish;
- - iqtidorli talabalar bilan ularni qiziqtiruvchi mavzular bo'yicha qo'shimcha darslarni tashkil qilish va h.k.

### **Fanni o'qitish semestrlari va uslubiy ko'rsatmalar**

Moliyaviy va boshqaruv hisobi fani talabalarga o'quv rejasi bo'yicha 3 - 4 - semestrlarda o'qitilib, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga soat yuklamalarini semestrlararo taqsimlanishi o'quv bo'limi tomonidan rejalashtiriladi.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi fani ma'ruza va amaliy mashg'ulot shaklida auditoriyada o'qitiladi.

O'quv jarayonida rejaga muvofiq oldin ma'ruza, keyin amaliy mashg'ulot o'tkaziladi. O'tilgan mavzular bo'yicha talabalarning mustaqil o'rganishi uchun uy vazifalari beriladi, uy vazifalarini bajarilganligi darajasi reyting yordamida baholanadi. Talabalarning olgan bilimlarini aniqlashning va yozma usullari qo'llaniladi.

### **Umumiy va o'quv ishlari turlari bo'yicha hajmi**

Moliyaviy va boshqaruv hisobi fanini o'rganish bo'yicha "Moliya" va "Soliq" yo'nalishlari va Oliy ta'limning bilim sohasi boshqa yo'nalishlari uchun o'quv rejasida jami 144 soat belgilangan. Shundan: ma'ruza 72 soat, amaliy mashg'ulot 72 soat. Ma'ruza va amaliy mashg'ulot, mustaqil ta'lim o'tiladi, o'qituvchilar rahbarligida auditoriyada yoki uy ishi sifatida, mustaqil ish esa dasturda belgilangan mavzular bo'yicha adabiyotlardan foydalangan holda talabalar tomonidan uyda bajariladi.

## **2. FAN DASTURI**

Ma'ruza mashg'ulotlarining mavzulari

### **Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanining predmeti va uslubiyati**

Xo'jalik hisobi to'g'risida umumiy tushuncha va unga qo'yiladigan talablar. Xo'jalik hisobining turlari, hisobda qo'llaniladigan o'lchov birliklari.

Buxgalteriya hisobining predmeti va uning ob'ektlari. Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini turkumlash. Xo'jalik mablag'larini turkumlash. Xo'jalik jarayonlari va xo'jalik muomalalari to'g'risida tushuncha. Buxgalteriya hisobining

iqtisodiyot tarmoqlari xususiyatlari va mulkchilikning shakllariga bog'liqligi. *Buxgalteriya hisobining usullari va uning elementlari*: hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, balans va hisobot, schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv.

### **Buxgalteriya balansi va hisobot**

*Buxgalteriya balansining tuzilishi, uning mazmuni va ahamiyati*. Balans moddalari. *Balansni o'qish tartibi*. Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Respublikamiz korxonalarida tuzilayotgan balanslar bilan xorijiy davlatlarda tuzilayotgan balanslar o'rtasidagi umumiy bog'liqlik. Hisob siyosatida balansni yoritib berish tartibi. Balansga tegishli bo'lgan moliyaviy hisobot elementlari.

### **Schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv**

*Buxgalteriya hisobining schyotlari va uning tuzilishi. Ikkiyoqlama yozuv va uning asoslanishi. Schyotlarning iqtisodiy mazmuni, tarkibi va tayinlanishi bo'yicha turkumlanishi*. Buxgalteriya hisobining schyotlar tizimi va uning ahamiyati. Asosiy schyotlar va tartibga soluvchi schyotlar, taqsimlovchi schyotlar va kalkulyatsion schyotlar, taqqoslovchi schyotlar, balansdan tashqari schyotlar. Joriy schyotlar va kontrar - aktiv, kontrar - passiv schyotlar. Ketma - ket (xronologik) va tizimli (sistemali) yozuvlar. *Balans va schyotlarning o'zaro bog'liqligi. Buxgalteriya hisobining schyotlari rejasi*.

### **Buxgalteriya hisobini tashkil etish**

*O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni va uning ahamiyati*. Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining vazifalari va funksiyalari. Buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. Bosh buxgalterning burchi, huquqi va javobgarligi. Buxgalteriya apparati, ularning tuzilishi va vazifalari. *Hisob registrlari, ularning buxgalteriya hisobidagi roli va ahamiyati*. Buxgalterning avtomatlashtirilgan ish joyi haqida tushuncha. Buxgalteriya hisobining shakllari: jurnal - order va memorial - order shakli. Korxonalarda hisob siyosati.

### **Pul mablag'lari va hisob - kitoblar hisobi**

*O'zbekiston Respublikasida milliy valyutani qo'llab - quvvatlash va pul - kredit siyosati*. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida pul mablag'lari va tashkilotlar o'rtasida hisoblashishlar hisobining vazifalari.

Naqd pul, kassa muomalalarining hisobini yuritish tartibi. Bank muassasalaridagi pul mablag'lari bo'yicha kassa, hisob - kitob, valyuta scheti va bankdagi boshqa

schetlarning hisobini tashkil qilish. Bankdagi maxsus, akkreditiv, chek daftarlari va boshqa maxsus schetlar. Pul ekvivalenti, yo'ldagi pullar scheti.

### **Materiallar hisobi**

Materiallarning xo'jalik faoliyatidagi roli, tutgan o'rni va bu sohada hisobning vazifalari. Material va xom ashyo, ularni turkumlarga ajratish, baholash. Materiallarni qabul qilishni hujjatlashtirish, materiallarni omborda va buxgalteriyada hisobga olish. *Materiallarni sarflash hisobi, o'rtacha bahoda, FIFO, LIFO, NIFO va boshqa usullarda baholab sarflash hisobi.* Materiallardan foydalanishni nazorat qilish.

### **Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi**

Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishning vazifalari. Asosiy vositalarni turkumlarga ajratish va baholash tartibi. Asosiy vositalarni qabul qilish va hujjatlashtirish. Asosiy vositalarning sintetik hisobini tashkil qilish. Asosiy vositalardan foydalanish hisobi. *Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari.* Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini hisobga olish va moliyalashtirish tartibi. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi. Lizing muomalalari hisobining xususiyatlari. Asosiy vositalarni xo'jalikdan chiqarish hisobi.

Nomoddiy aktivlar hisobining vazifalari. Nomoddiy aktivlarni baholash. *Nomoddiy aktivlarni qabul qilishni hujjatlashtirish.* Nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobini tashkil qilish. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi: ularning muddati tugaganda, boshqa tashkilotlarga sotganda va boshqa hollarda.

### **Mehnat va ish haqi hisobi**

Mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishda mehnat va ish haqi hisobining vazifalari. Korxonaning tarkibi, uning turkumlanishi, mehnatga haq to'lashning shakllari va turlari. Mehnat va ish haqini dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirish, uni umumlashtirish. *Ish haqidan ushlab qolinadigan va chegiriladigan summalar hisobi. Ijtimoiy sug'urta va ta'minot ajratmalarining hisobi,* ulardan foydalanishni hisobga olish. Mehnat ta'tili rezervlari va to'lovlari hisobi.

### **Moliyaviy qo'yilmalar hisobi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy qo'yilmalarning roli va bu sohada hisobning vazifalari. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar tarkibi. Qimmatli qog'ozlar: aktsiya, obligatsiya, zayom va boshqalar. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar hisobini tashkil qilish. Aktsiya, obligatsiyalarni sotib olishning o'ziga xos xususiyatlari. *Aktsiyalarni nominal va sotib olish bahosida hisobga olish tartibi.* Aktsiyalarni sotib olish xarajatlarini moliyalashtirish. Aktsiyalarni qaytarib sotish hisobi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalardan olingan daromadlar hisobi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni sotib olishda va foydalanishda moliyaviy natijalarni oldindan va keyin aniqlash hisobi.

Boshqaruv hisobining nazariy asoslari.

Boshqaruv hisobi va uning mazmuni. Boshqaruv hisobining predmeti va metodi. Boshqaruv hisobining oldiga qo'yilgan vazifalari. Boshqaruv hisobini tashkil etishning korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi.

*Boshqaruv hisobini tashkil etishning variantlari: avtonom va integratsiyalashgan.* Boshqaruv va moliyaviy hisob schetlar rejalarida xo'jalik muomalalarini qayd etish tizimlari. Sanoat korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash.

Xarajatlar hisobi va mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxini hisoblash

Xarajatlar haqida tushuncha. Xarajatlarni turkumlash. *Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha tannarxga qo'shiladigan xarajatlarni umumlashtirish va ularni taqsimlash.*

Mahsulot tannarxining tarkibi va turlari. Jarayonli, bo'linmali, buyurtmali tannarxni hisoblash usullari. To'liq tannarx va ishlab chiqarish tannarxini hisoblash. Bevosita xarajatlarni mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga qo'shish. Bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olish. *Xaqiqiy va normativ usullar bo'yicha xarajatlar hisobi va tannarxni hisoblash.* «Standart kost» va «Direkt kosting» usullari.

### **Byudjetlashtirish va xarajatlarni baholash**

Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish. Ishlab chiqarish va savdo korxonalarining Bosh byudjeti. Boshqaruv qarorlari qabul qilish. *Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish.* Sotiladigan mahsulot (tovarlar) assortimentini rejalashtirish. Bahoni shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish.

### **Transfert bahoni shakllantirish**

*Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari:* bozor narxi va xarajatlar miqdori bo'yicha baholash, uning afzalliklari va kamchiliklari, transfert



baholarni o'rnatish uslublari. Sanoat, savdo va bank tizimida transfert bahoni shakllantirish.

### **Korxonaning segmentar hisoboti**

Segmentar hisobotining mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish qoidalari. *Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar hisobotni tuzish qoidalari*. Ichki segmentar hisobotini tuzilishi shartlari va tamoyillari.

Segmentar hisoboti tuzish bosqichlari va uning vazifalari. Javobgarlik markazlari faoliyatini byudjetlashtirish va baholash.

### **Mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hisobi**

*Tayyor mahsulot haqida tushuncha, uning omborga qabul qilish tartibi, baholash va buxgalteriyadagi sintetik hisobi.*

Mahsulot sotishda marketing faoliyatining vazifalari va taqdim etadigan ma'lumotlardan buxgalteriya hisobida foydalanish. Mahsulotni sotishda baho o'rnatish tartibi. Mahsulot sotishning analitik hisobi.

### **Kapital, fondlar va moliyaviy natijalar hisobi**

*Kapital va uning tarkibi.* (ustav, qo'shilgan, rezerv kapital). Kapitalning korxonada tutgan o'rni va hisobining vazifalari. *Kapitalni tashkil etish manbalari. Kapital harakatini hisobga olish.* Kelgusi davr xarajatlarini qoplash rezerv fondini tashkil qilish va foydalanish hisobi. Moliyaviy natijalarni aniqlash hisobi. Asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar hisobi. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar hisobi. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash hisobi. Sof foydani aniqlash va taqsimlash hisobi. *Foyda va zararlar hisobini yuritish tartibi.*

### **Moliyaviy hisobot**

Moliyaviy hisobotning vazifasi, uning tarkibi, buxgalteriya balansi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. *Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi.* Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar. Moliya, bank, statistika, soliq, xaridor, buyurtmachi, hissadorlar va boshqa foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari va unga auditorlarning xulosasining zaruriyligi.

## **3. AMALIY VA SEMINAR DARSLARINING RO'YXATI**

Buxgalteriya hisobi nazariyasi fanining predmeti va metodi

Xo'jalik xisobi to'g'risida umumiy tushuncha va unga qo'yiladigan talablar. Xo'jalik hisobining turlari, hisobda qo'llaniladigan o'lchov birliklari.

Buxgalteriya hisobining predmeti va muhim ob'ektlari. Xo'jalik mablag'larining tashkil topish manbalarini turkumlash, xo'jalik mablag'larini turkumlash\*. Xo'jalik jarayonlari va xo'jalik muomalalari to'g'risida tushuncha. Buxgalteriya hisobining iqtisodiyot tarmoqlari xususiyatlari va mulkchilikning shakllariga bog'liqligi. Buxgalteriya hisobining usullari va uning elementlari: hujjatlashtirish va inventarizatsiya, baholash va kalkulyatsiya, balans va hisobot, schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv.

### **Buxgalteriya balansi va hisobot**

Buxgalteriya balansining tuzilishi, uning mazmuni va ahamiyati\*. Balans moddalari. Balansni o'qish tartibi. Xo'jalik muomalalari ta'sirida balansda sodir bo'ladigan o'zgarishlar. Respublikamiz korxonalarida tuzilayotgan balanslar bilan xorijiy davlatlarda tuzilayotgan balanslar o'rtasidagi umumiy bog'liqlik. Hisob siyosatida balansni yoritib berish tartibi. Balansga tegishli bo'lgan moliyaviy hisobot elementlari.

### **Schyotlar tizimi va ikkiyoqlama yozuv**

Buxgalteriya hisobining schyotlari va uning tuzilishi. Ikkiyoqlama yozuv va uning asoslanishi. Schyotlarning iqtisodiy mazmuni, tarkibi va tayinlanishi bo'yicha turkumlanishi. Buxgalteriya hisobining schyotlar tizimi va uning ahamiyati\*. Asosiy schyotlar va tartibga soluvchi schyotlar, taqsimlovchi schyotlar va kalkulyatsion schyotlar, taqqoslovchi schyotlar, balansdan tashqari schyotlar. Joriy schyotlar va kontrar - aktiv, kontrar - passiv schyotlar, Ketma - ket (xronologik) va tizimli (sistemali) yozuvlar. Balans va schyotlarning o'zaro bog'liqligi. Buxgalteriya hisobining schyotlari rejasi.

### **Buxgalteriya hisobini tashkil etish**

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni va uning ahamiyati\*. Xo'jalik sub'ektlarida buxgalteriya hisobining vazifalari va funksiyalari. Buxgalteriya hisobini tashkil etish asoslari. Bosh buxgalterning burchi, huquqi va javobgarligi. Buxgalteriya apparati, ularning tuzilishi va vazifalari. Hisob registrlari, ularning buxgalteriya hisobidagi roli va ahamiyati\*. Buxgalterning avtomatlashtirilgan ish joyi haqida tushuncha. Buxgalteriya hisobining shakllari: jurnal - order va memorial - order shakli. Korxonalarda hisob siyosati.

### **Pul mablag'lari va o'zaro hisob - kitoblar hisobi**

O'zbekiston Respublikasida milliy valyutani qo'llab - quvvatlash va pul - kredit siyosati. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida pul mablag'lari va tashkilotlar o'rtasida hisoblashlar hisobining vazifalari.

Naqd pul, kassa muomalalarining hisobini yuritish tartibi. Bank muassasalaridagi pul mablag'lari bo'yicha kassa, hisob - kitob, valyuta schyoti va bankdagi boshqa schyotlarning hisobini tashkil qilish. Bankdagi maxsus, akkreditiv, chek daftarlari va boshqa maxsus schetlar\*. Pul ekvivalenti, yo'ldagi pullar schyoti.

### **Materiallar hisobi**

Materiallarning roli, tutgan o'rni va bu sohada hisobning vazifalari. Material va xom ashyo, ularni turkumlarga ajratish, baholash. Materiallarni qabul qilishni hujjatlashtirish, materiallarni omborda va buxgalteriyada hisobga olish. Materiallarni sarflash hisobi, o'rtacha bahoda, FIFO, LIFO, NIFO va boshqa usullarda baholab sarflash hisobi\*. Materiallardan foydalanishni nazorat qilish. Arzon va tez eskiruvchi buyumlar hisobining xususiyatlari.

### **Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobi**

Asosiy vositalar hisobini tashkil qilishning vazifalari. Asosiy vositalarni turkumlarga ajratish va baholash tartibi. Asosiy vositalarni qabul qilish va hujjatlashtirish. Asosiy vositalarning sintetik hisobini tashkil qilish. Asosiy vositalardan foydalanish hisobi. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari\*. Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarini hisobga olish va moliyalashtirish tartibi. Asosiy vositalarni ijaraga olish va ijaraga berish hisobi. Lizing muomalalari hisobining xususiyatlari. Asosiy vositalarni xo'jalikdan chiqarish hisobi.

Nomoddiy aktivlar hisobining vazifalari. Nomoddiy aktivlarni baholash. Nomoddiy aktivlarni qabul qilishni hujjatlashtirish. Nomoddiy aktivlarning analitik va sintetik hisobini tashkil qilish\*. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashning tartibi va usullari. Nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish tartibi: Ularning muddati tugaganda, boshqa tashkilotlarga sotganda va boshqa hollarda.

### **Mehnat va ish haqi hisobi**

Mahsulot sifatini va mehnat unumdorligini oshirishda mehnat va ish haqi hisobining vazifalari. Korxonaning shaxsiy tarkibi, uning turkumlanishi, mehnatga haq to'lashni shakllari va turlari. Mehnat va ish haqini dastlabki hujjatlarda rasmiylashtirish, uni umumlashtirish. Ish haqidan ushlab qolinadigan va chegiriladigan summalar hisobi. Ijtimoiy sug'urta va ta'minot ajratmalarining hisobi, ulardan foydalanishni hisobga olish. Mehnat ta'tili rezervlari va to'lovlari hisobi\*.

## **Moliyaviy qo'yilmalar hisobi**

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy qo'yilmalarning roli va bu sohada hisobning vazifalari. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar tarkibi. Qimmatli qog'ozlar: aktsiya, obligatsiya, zayom va boshqalar. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalar hisobini tashkil qilish. Aktsiya, obligatsiyalarni sotib olishning o'ziga xos xususiyatlari. Aktsiyalarni nominal va sotib olish bahosida hisobga olish tartibi, Aktsiyalarni sotib olish xarajatlarini moliyalashtirish\*. Aktsiyalarni qaytarib sotish hisobi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalardan olingan daromadlar hisobi. Uzoq muddatli moliyaviy qo'yilmalarni sotib olishda va foydalanishda moliyaviy natijalarni oldindan va keyin aniqlash hisobi.

## **Boshqaruv hisobining nazariy asoslari**

Boshqaruv hisobi va uning mazmuni. Boshqaruv hisobining predmeti va metodi. Boshqaruv hisobining oldiga qo'yilgan vazifalari. Boshqaruv hisobini tashkil etishning korxonada buxgalteriya hisobini yuritish siyosatiga mos kelishi.

Boshqaruv hisobini tashkil etishning variantlari: avtonom va integratsiyalashgan\*. Boshqaruv va moliyaviy hisob schetlar rejalarida xo'jalik muomalalarini qayd etish tizimlari. Sanoat korxonalarida integratsiyalashgan usulni qo'llash.

## **Xarajatlar hisobi va mahsulot (ish, xizmatlar)tannarxini hisoblash**

Xarajatlar haqida tushuncha. Xarajatlarni turkumlash. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar bo'yicha tannarxga qo'shiladigan xarajatlarni umumlashtirish va ularni taqsimlash.

Mahsulot tannarxining tarkibi va turlari\*. Jarayonli, bo'linmali, buyurtmali tannarxni hisoblash usullari. To'liq tannarx va ishlab chiqarish tannarxini hisoblash. Bevosita xarajatlarni mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga qo'shish. Bilvosita xarajatlarni mahsulot tannarxi tarkibida hisobga olish\*. Haqiqiy va normativ usullar bo'yicha xarajatlar hisobi va tannarxni hisoblash. «Standart kost» va «Direkt kosting» usullari.

## **Byudjetlashtirish va xarajatlarni baholash**

Boshqaruv hisobi tizimida rejalashtirish. Ishlab chiqarish va savdo korxonalarining Bosh byudjeti. Boshqaruv qarorlari qabul qilish. Ishlab chiqarish zararsizligini tahlil etish\* Sotiladigan mahsulot (tovarlar) assortimentini rejalashtirish. Bahoni shakllantirish bo'yicha qaror qabul qilish.

## **Transfert bahoni shakllantirish**

Transfert bahosining turlari va shakllantirish tamoyillari: bozor narxi va xarajatlar miqdori bo'yicha baholash, uning afzalliklari va kamchiliklari, transfert baholarni o'rnatish uslublari\*. Sanoat, savdo va bank tizimida transfert bahoni shakllantirish.

### **Korxonaning segmentar hisoboti**

Segmentar hisobotining mohiyati, ahamiyati va uni tashkil etish qoidalari. Tashqi foydalanuvchilar uchun segmentar hisobotni tuzish qoidalari. Ichki segmentar hisobotini tuzishi shartlari va tamoyillari\*.

Segmentar hisoboti tuzish bosqichlari va uning vazifalari. Javobgarlik markazlari faoliyatini byudjetlashtirish va baholash.

### **Mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hisobi**

Tayyor mahsulot haqida tushuncha, uni omborga qabul qilish tartibi, baholash va buxgalteriyadagi sintetik hisobi\*.

Mahsulot sotishda marketing faoliyatining vazifalari va taqdim etadigan ma'lumotlardan buxgalteriya hisobida foydalanish. Mahsulotni sotishda baho o'rnatish tartibi. Mahsulot sotishning analitik hisobi.

### **Kapital, fondlar va moliyaviy natijalar hisobi**

Kapital va uning tarkibi (ustav, qo'shilgan, rezerv). Kapitalning korxonada tutgan o'rni va hisobining vazifalari. Kapitalni tashkil etish manbalari. Kapital harakatini hisobga olish. Kelgusi davr xarajatlarini qoplash rezerv fondini tashkil qilish va foydalanish hisobi\*. Moliyaviy natijalarni aniqlash hisobi. Asosiy faoliyatdan olingan moliyaviy natijalar hisobi. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natijalar hisobi. Soliq to'lagunga qadar foydani aniqlash hisobi. Sof foydani aniqlash va taqsimlash hisobi. Foyda va zararlar hisobini yuritish tartibi.

### **Moliyaviy hisobot**

Moliyaviy hisobotning vazifasi, uning tarkibi, buxgalteriya balansi. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot. Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot. Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot. Moliyaviy hisobotni tuzishga tayyorgarlik ko'rish tartibi. Moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilar. Moliya, bank, statistika, soliq, xaridor, buyurtmachi, hissadorlar va boshqa foydalanuvchilarni axborot bilan ta'minlash. Moliyaviy hisobot ma'lumotlari va unga auditorlarning xulosasini zaruriyligi\*.

#### **4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI**

“Moliyaviy va boshqaruv hisobi” fanini o'rganuvchi talabalar auditoriyada olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash uchun mustaqil ta'lim tizimiga asoslanib, kafedra o'qituvchilari rahbarligida, o'quv rejasiga muvofiq mustaqil ta'lim oladi. Mustaqil ta'lim mavzulari va topshiriqlari quyidagilardan iborat: O'zbekiston Respublikasida xalqaro buxgalteriya hisobi standartlariga o'tish muammolari; O'zbekiston Respublikasi buxgalteriya hisobining milliy standartlari; Asosiy vositalar hisobi; Kapital qo'yilmalar hisobining xususiyati; Lizing muomalalari hisobi; Materiallar hisobi; Bozor iqtisodiyoti sharoitida mehnat va ish haqi hisobini tashkil qilish; Mehnat va ish haqi hisobini avtomatlashtirish; To'g'ri va egri xarajatlar hisobi; Hissadorlar bilan hisoblashishlar.

Moliyaviy va boshqaruv hisobi fanini o'rganishda talabalar amaliy yordam tariqasida moliyaviy hisob bo'yicha qo'llaniladigan turli xil shakl, chizmalar, slaydlar bilan ta'minlanadi. Unda: Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblash usullari; Asosiy vositalarni baholash; Materiallar o'rtacha tannarxi, FIFO va LIFO usullarida baholash tartibi; Mehnatga haq to'lash va uni hisobga olish; Mehnat haqidan daromad solig'ini hisoblash va uni to'lash tartibi; Nomoddiy aktivlarni dastlabki hujjatlarda aks ettirish tartibi. Investitsiyalarni baholash va ularni hisobga olish; Kapital qo'yilmalarni hisobga olish; Ustav kapitalini shakllantirish; Fondlarni tashkil etish; Moliyaviy natijalarni aniqlash; Moliyaviy hisobotlarni tuzish tartiblarini o'rganishi mumkin.

Talabalar moliyaviy va boshqaruv hisobi fanini o'rganishda axborot vositalaridan, ya'ni internet tizimidan ham keng foydalanadilar. Unda quyidagi sayt va elektron pochta mavjud:

1. <http://www.apb.org.uk> (Auditing Practices Board)
2. <http://www.nao.gov.uk> (UK National Audit Office)
3. <http://www.iaa.org.uk> (The Institute of Internal Auditors - United Kingdom)
4. <http://www.iasc.org.uk> (International Accounting Standards Committee)
5. <http://www.aicpa.org/index.htm> (American Institute of Certified Public Accountants)
6. [www.uza.us.apb](http://www.uza.us.apb). (O'MA turli sohalarga doir kundalik yangiliklari)

7. [www.uzperort.com](http://www.uzperort.com) (Kundalik biznes yangiliklari)
8. [www.referat.uz](http://www.referat.uz) (Referatlar to'plami)

Shuningdek, talaba respublikadagi chop etilgan gazeta va jurnallardan mutaxassisligiga tegishli materiallarni oladi.

Talabalarga O'zbekiston Respublikasi auditorlar palatasi, Buxgalterlar va Auditorlar milliy assosiatseyasi, Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti va Toshkent moliya institutida tayyorlangan o'quv filmlar, didaktik materiallar va multimedik ilovalardan foydalanish tavsiya etiladi.

## **5. O'ZLASH TIRISHNI BAHOLASH**

Talabalarni fan bo'yicha o'zlashtirishlarini baholash semestr davomida muntazam ravishda olib boriladi va quyidagi turlar orqali amalga oshiriladi; joriy baholash, oraliq baholash va yakuniy baholash. Joriy va oraliq baholash turiga ajratilgan ballar miqdori o'quv rejasida fanga ajratilgan soatning 70 %, yakuniy baholashga esa 30 % miqdorda belgilanadi. «Moliyaviy va boshqaruv hisobi» fanidan talaba to'plashi mumkin bo'lgan maksimal ball 144 ga teng bo'lib, shundan joriy baholashga 50.4 ball, oraliq baholashga 50.4 ball va yakuniy baholashga esa 43.2 ball ajratiladi. Joriy va oraliq baholash turlariga belgilangan ballar quyidagi holatlarda qo'yiladi:

- - talabaning o'quv jarayonidagi davomati va faolligi;
- - amaliy (seminar) mashg'ulotlarga tayyorgarlik darajasi;
- - fan bo'yicha asosiy manbalarni konspektlashtirish;
- - dolzarb mavzular bo'yicha referatlar yozish;
- - mustaqil ta'lim uchun berilgan baholash ishlarini bajarish;
- - fan bo'yicha ko'rgazmali qurollarni tayyorlash.
- - Tayanch tushunchalariga asoslangan yozma ish usulini o'tkazish tartibi «Reyting tizimini yakuniy baholash bosqichida «qzma ish» usulini tatbiq etish bo'yicha "Namunaviy Nizom" bilan belgilanadi.

## **6. ADABIYOTLAR**

**Asosiy adabiyotlar**

1. I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni. //Xalq so'zi, 1996.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi 54 - sonli Qarori «Mahsulot (ish, xizmatlar) tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tartibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risidagi Nizom. - T.: O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari, 1999.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 1997 yil 15 yanvar 5 - son buyrug'i (1997 yillik va yarim yillik hisoboti to'ldirish to'g'risida). - T.: O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari, 1997.
4. Bobojonov O.U. Moliyaviy hisob. - T.: Mehnat, 1999.
5. Moliyaviy hisob. KARANA korporatsiyasi. - T., 2000.
6. Rizaqulov A.A. Uzoq muddatli aktivlar hisobi. - T.: Fan, 1998.
7. Rizaqulov A.A., Ibrohimov A.K., Hasanov B.A., Usanov A.U., Mamatov Z.T. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. I - III tom. – T.: TMI va IUT, 1994.
8. Sotivoldiev. A., Itkin Yu. Zamonaviy buxgalteriya hisobi. (Yangi schyotlar rejasi asosida). – T.: PB va AA - 2002 , 1 - 2tom.
9. G'ulomova F. Buxgalteriya hisobidan mustaqil o'rganish uchun qo'llanma. - T.: Mehnat, 2001.
10. O'zbekiston Respublikasi Moliyaviy qonunlari to'plamlari. 2000 - 2002 .
11. Paliy V.F. Upravlencheskiy uchets – M.: Soyuzaudit, 1997.
12. Xonrgren Ch.T. Foster Dj. Buxgalterskiy uchets: upravlencheskiy aspekt. – M.: Finansi i statistika. 1995.
13. Bobojonov O., Xasanov B. Finansoviy uchets. - T.: TGEU, 2001.
14. Paliy V.F., Paliy V.V. Finansoviy uchets., - M.: FBK, 2001

#### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi. –T.: Adolat, 1997.
2. Ibragimov A., Karimov A. Xorij sarmoyalari buxgalteriya hisobi. - T.: O'zbekiston, 1999.
3. Vaxrushina M.A. Buxgalterskiy upravlencheskiy uchets. Uchebnik dlya Vuzov. 2 - e izd., - M.: IKF Omega - L; Vissh. shk., 2002.
4. Frenk Vud. Buxgalterskiy uchets dlya predprinimateley. M.: O.O.O Askeri, 1996.
5. G'ulomova F. Samouchitel po buxgalterskomu uchetu. - T.: Mir ekonomiki i prava, 2000.
6. Pankov D. Buxgalterskiy uchets i analiz v zarubejnih stranax. - Mn: Ekoperespektiva, 1998.



7. Nikolaeva O. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti: - M.: URSS, 2001.
8. Chaya V., Chaya G. Mejdunarodnie standarti finansovoy otchetnosti, GUP IPK «Ulyanovskiy Dom pečati», 2000.
9. Fremgen F.M. Accounting for managerial Analysis: Third Edition. Richard D. Irwing Inc., Homewood, Illions, 1996.
10. Kenneth M. Morris & Allan M. Siegel. Guide to understanding money & investing. 2000 by lightbulb, press, Inc.
11. Securities Regulation in THE Unite States. NASD. Washington - 2000.
12. The Istanbul Stock Exchange In a Historical Perspective. Written by Pfor. Haydar Kazgan/ published by ISE. - Istanbul - 1999